

HUQUQ DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Bozorova Zarifa Rashidovna

Buxoro viloyati Buxoro shahar 38-maktab Davlat va huquq asoslari

Annotatsiya: Maqolada, huquq darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni, o' quvchilarning huquqiy bilim, ko'nimalarini rivojlantirish ,qonunlarga rioya etish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: huquq, qonun, huquqiy ta'lim, huquqiy savodxonlik, huquqiy axborot, mustaqil fikrlash.

Bugungi kun talablaridan biri — o'quvchi yoshlarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Mustaqil fikrlashning ahamiyati beqiyos katta. O'quvchilarda erkin fikrga ega qilish pedagoglarning eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir pedagog o'zining asosiy e'tiborini quydagilarga qaratishi lozim:

- O'qitish jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qila olish;
- Darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar faolligini oshirish;
- O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish;
- Davlat va huquq asoslari darslariga o'quvchilar qiziqishini o'stirish.

Hozirgi kunda o'quvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini muntazam egallab borishlariga erishish o'quvchining muxim vazifalaridan xisoblanadi. Bu vazifani o'quvchilarning mustaqil ishlarisiz hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berish lozim. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishiiig metodik usullari xilma- xildir. Mustaqil ish sinfda va uyda sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham bajariladi.O'qituvchining vazifasi sinf o'quvchilarining ish faoliyati ustidan nazorat qilish, ular mustaqil ishni ongli bajarishlariga erishishi lozim. O'qituvchining rahbarlik roli shunga qaratilgan bo'lishi kerak. O'quvchi dars jarayonida u yoki bu masala yuzasidan fikr-muloxazalar yuritsin, o'ylab ko'rsin, o'z fikrini bayon qilsin, xulosalar chiqarsin. O'quvchilarga darsda yangi ma'lumot berish jarayonida o'qituvchining bayoni oldindan belgilab qo'yilgan savollar yordamidagi suhbat bilan qo'shib olib borilsa, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun katga imkoniyat tug'iladi. Bunda o'qituvchi butun dars davomida shu

faollikni saqlashi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuzatib borishi lozim. Shu tarzda dars boshidan oxirgacha o'quvchilarning faol ishtirok etishlari va o'qituvchining savollariga mustaqil javob berishlari asosida o'tadi. O'quvchilarning javoblari ongli, to'liq va mustaqil bo'lishi kerak. Tadqiqotchi R.Boymirzaevaning ta'kidlashicha, "...ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar doirasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat mavzusini alohida o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, tegishli qonun hujjatlarida va dasturlarda ushbu masala ustuvor vazifa sifatida belgilash kerak", deyiladi. O'quvchilar savollarga javob berishda hamma vaqt ham o'rganilayotgan materialning tomonlarini to'liq ochib bera olmaydilar. Bunday vaqtlarda asosiy savollar bilan birga qo'shimcha savollardan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Yordamchi savollar malum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, berilgan savolga javob berishda ochilmay qolgan o'rinlarni to'ldirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun bunday savollar o'qituvchi tomonidan sharoitni xisobga olgan holda beriladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarda huquqga oid bilim va malakalarni vujudga keltirish jarayonining hamma tarkibiy qismlarini bir darsning o'zida amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ishda o'quvchilarning mustaqil mutolaasi, darsdan tashqari mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarga davlat va huquq asoslari fanidan eng muxim manba - darslikdir. Undan tashqari xujjatlar bilan ishlash, badiiy, huquqiy adabiyotlardan foydalanish, mavzuga oid referatlar yozish, tarixiy mavzularda kechalar, ma'lum bir mavzuda munozaralar o'tkazish ham o'quvchilarni ta'limiy o'stirish vositasi hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga darslikdagi savol va topshiriqlarni muntazam bajarishga odatlantirish orqali mustaqil ravishda aqliy faoliyat bilan shug'ullanishi, tarixiy xodisalarni taqqoslab ko'rishi, tushunchalarni umumlashtirishni, ijtimoiy xodisalar sabablarini aniqlashni, asosiy sababni asosiy bo'lmagan sababdan ajratishni, to'g'ri xulosa chiqarishni, xulosalarni asoslab berishni o'rgatib borishi kerak. O'quvchilar o'qituvchi bergan topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil holda izlanadi, fikr yuritadi. Eng muhimi mustaqil fikrlashga o'rganadi. O'qituvchi o'quvchi fikrini tinglashi, so'ngra esa uning kamchiliklarini muxokama qilish jarayonida sinf o'quvchilarini bahsga chorlashi yaxshi natija beradi. Fikr - muloxaza bahs jarayonida tug'iladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarni bahsga chorlash ularni rag'batlantirib turish, o'quvchilarni cho'chimay o'z fikrini ochiq aytishga, erkin fikr bildirishga, o'z fikrini asoslab berishga - ijodiy fikrlashga olib keladi.

O'qituvchi qo'llaydigan metodik usullar o'quvchi fikrlash qobiliyatining o'sishida muhim ahamiyatga ega. Bitta mavzuni turli xil metodik usul, vositalar bilan ochib berish mumkin. Masalan: ishlash, muammoli vaziyat yaratish, qiyosiy taxlil usullaridan, noan'anaviy usullardan foydalanish mumkin. O'quvchilarning

fikrlash qobiliyati bilan bog'liq malaka va ko'nikmalariga quyidagilarni kiritish mumkin: huquqiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqea va hodisalardagi eng asosiy, muxim narsalarni ajrata olish, huquqiy tushunchalarni ta'riflab berishga o'rgatish. O'quvchilarning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq malaka va ko'nikmalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Huquqiy hodisalarning joyini aniqlash, huquqiy voqelikni tilga kiritish.
2. Voqealar va hodisalarni taqqoslash, qiyoslash.
3. Axborotlar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlash, kichik badiiy-huquqiy asarlarni tahlil etishga o'rgatish.
4. Huquqiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, manbalarning eng asosiysini ajrata olish, huquqiy tushunchalarga ta'riflar berish.

Huquqiy bilim olgan shaxs o'z bilimini hayotda amaliyotda ishlata bilish, tadbiq eta olishi kerak. Masalan, bunday shaxs inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlari bo'yicha o'rganganlaridan hayotda foydalana olish, qonun asosida o'zini himoya qila olishi lozim³⁵. Demak, bugungi o'quvchilar ertaga huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yetuk shaxs sifatida jamiyatning faol a'zolariga aylanadilar. Shunday qilib, dunyoqarashning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ana shu malakalarni takomillashtirib borish o'z-o'zidan o'quvchida erkin fikrlash qobiliyatining shakllanishiga olib keladi. Maktab davri shaxsning shakllanishi jarayoni kechayotgan bosqich hisoblanadi. Shu davrda o'z fikrini erkin aytishga, o'z qarashlarini himoya etishga odatlanmagan. Bizning vazifamiz, har bir o'quvchiga to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilishni o'rgatish, huquqiy ongini rivojlantirish hamda qonunlarga hurmat nazari bilan qaraydigan shaxsni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huquqshunoslik. Adademic litseylar uchun darslik. T.; Sharq. 2020.
2. Boymirzaeva R.X. "Ta'lim muassasalarida huquqiy bilim berishning o'ziga xos xususiyatlari". Ilmiy maqola. Xalq ta'limi. Jurnal 2016 yil 1-son.
3. Namangan viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirirish hududiy markazi "Fan va jamiyatning o'zaro ta'siri - modernizatsiya va innovatsion rivojlanish sari yo'l" xalqaro onlayn ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari to'plami. 2- tom. 10.06.2020. Namangan.